

# **Fotokompozitsiya loyixalarini yaratishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash**



**O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi**

**"Kino-teleoperatorlik"**

**Professor v.b. Iqbol Meliqo'ziyev**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri, professor v.b.  
Iqbol Meliqo‘ziyev

**Taqrizchilar:** **Xorijiy ekspert:** JOONHWA JIN-Janubiy Koreya  
“DONG-A” media va san’at instituti professori.

A.Ismoilov – O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini professori

O‘quv-uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR .....	20
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	58
V. KEYSLAR BANKI .....	90
VI. GLOSSARIY .....	94
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	98

# I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu orqali oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Kino-teleoperatorlik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz yangilash hamda rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- oliy ta‘limning sifatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan zamonaviy talablarga mos holda pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlash;

maxsus fanlar sohasida o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;

“Kino-teleoperatorlik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

Oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslari”, “Ilg‘or ta‘lim texnologiyalari va pedagogik mahorat”, “Ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash”, “Amaliy xorijiy til”, “Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari” modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talabalar tegishli ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- kino-teleoperatorlik sohasidagi yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlarni;
- kino-teleoperatorlik fanlaridagi innovatsiyalarni;
- zamonaviy kino va televideniye operatorligi uslub va uslubiyotlarini;
- zamonaviy talabdagi mashg‘ulotlarni olib borish mezonlarini;
- kino-teleoperatorlik sohasidagi fanlarni o‘qitishda so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarni;
- kino-teleoperatorlik sohasidagi fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni;
- uch, besh va yetti o‘lchamli kino va telekamaralarni;
- fotografiya san‘tining rivojlanish tendensiyalarini;
- zamonaviy kino-teleoperatorlik mahorati ijodiy maktablarini;
- kino-teleoperatorlik sohasidagi zamonaviy texnik vositalarni **bilishi** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- kino-teleoperatorlik sohasida mavjud bo‘lgan dolzarb amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash;
- so‘nggi yillarda kino-teleoperatorlik sohasida erishilgan yutuqlardan amaliyotda foydalanish;
- kino-teleoperatorlik sohasi bo‘yicha xorijiy tildagi manbalardan pedagogik faoliyatda foydalanish;

- kino-teleoperatorlik sohasidagi modernizatsiya va o'zgarishlarni egallash hamda mazmun mohiyatini tinglovchilarga yetkazish;
- kino-teleoperatorlik sohasi fanlarini o'qitish metodikasi innovatsiyalaridan foydalanish;
- san'at mahsulining bozor qiymatini aniqlay olish;
- san'at va madaniyat sohasidagi innovatsiyalarni ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayoniga tadbiiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- zamonaviy innovatsion tasvirga olish texnologiyasidan foydalanish;
- kino-teleoperatorlik sohasi fanlarini o'qitishda ilg'or innovatsiyalarni qo'llash;
- kino-teleoperatorlik fanlarini o'qitishda xorijiy mamlakatlar o'quv tizimlarini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- kino-teleoperatorlik sohasida ilmiy-tadqiqot loyihalarini tayyorlash;
- kino-teleoperatorlik sohasi fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish;
- kino-teleoperatorlik sohasida ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Fotokompozitsiya fanining innovatsion imkoniyatlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kinooperatorlik mahorati fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish”, “Audiovizual industriyada marketing strategiyalari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar kinoteleoperatorlik san'ati, zamonaviy innovatsion tasvirga olish texnologiyasidan foydalanish, kino-teleoperatorlik sohasi fanlarini o'qitishda ilg'or innovatsiyalarni qo'llash, kino-teleoperatorlik fanlarini o'qitishda xorijiy mamlakatlar o'quv tizimlarini o'rganish va tahlil qilish hamda kino-teleoperatorlik sohasida ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish kompetensiyalariga ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hamma	Auditoriya o'quv yuklamasi		Mustaqil ta'lim
			J	3	

				Nazariy	Amaliy mashg'ul	Qo'shimcha	
1.	Fotokompozitsiya modulini o'qiishdagi an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni taqqoslash.	2	2	2			
2.	Fotokompozitsiya modulini o'qitishda zamonaviy metodlarning afzallik tomonlari.	2	2	2			
3.	Fotokompozitsiyaning zamonaviy texnik ta'minoti.	2	2		2		
4.	Fototasvirga olishda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash.	2	2		2		
5.	Fotokompozitsiyaning yangi qirralarini taxlil qilish va amaliyotda qo'llash	2	2		2		
6.	Fototasvirga olishda zamonaviy texnikalarni qo'llash uslublari. Fotokompozitsiyada yangi kashf etilgan kompozitsion uslublarni amaliyotda qo'llash.	2	2		2		
7.	Fotokompozitsiya fanining ilg'or xorijiy tajribalarini tahlil qilib, ilmiy izlanishlar olib borish metodikasi.	4	4	4			
8.	Uzoq tarixga ega o'zbek rassomlari ishlari, kompozitsiya yaratishdagi metodlari tajribalaridan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish.	4	4	4			
<b>Jami: 16 soat</b>		<b>20</b>	<b>20</b>	<b>12</b>	<b>8</b>		

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Fotokompozitsiya modulini o'qitishdagi an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni taqqoslash.**

Fotokompozitsiya modulini o'qitishdagi an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni taqqoslash. Kinooperatorlik mahoratida fotokompozitsiya fanining umum psixologik fanlardan farqi. Kompyuter, prezintatsiya, tarqatma material, talaba bilan ishlash.

## **2-mavzu: Fotokompozitsiya modulini o‘qitishda zamonaviy metodlarning afzallik tomonlari.**

Fotokompozitsiya modulini o‘qitishda zamonaviy metodlarning afzallik tomonlari. O‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish. Yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish. Fotokompozitsiya fanini o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish.

## **3-mavzu: Fotokompozitsiya fanining ilg‘or xorijiy tajribalarini tahlil qilib, ilmiy izlanishlar olib borish metodikasi.**

Fotokompozitsiya fanining ilg‘or xorijiy tajribalarini tahlil qilib, ilmiy izlanishlar olib borish metodikasi. Metodlardan tashqari ijodiy fikrlarni qo‘shimcha zamonaviy texnika orqali bir-birini takrorlamaydigan usullarini qo‘llash. O‘quv pavilioni, tasvirga olish maydonchasida, dekoratsiyalar bilan ishalash. Tabiiy quyosh nuridan foydalanib epizod olish.

## **4-mavzu: Uzoq tarixga ega o‘zbek rassomlari ishlari, kompozitsiya yaratishdagi metodlari tajribalaridan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish.**

Uzoq tarixga ega o‘zbek rassomlari ishlari, kompozitsiya yaratishdagi metodlari tajribalaridan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish. Ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, o‘quv pavilioni, tasvirga olish maydonchasida, dekoratsiyalar bilan ishalash.

### **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashg‘ulot: Fotokompozitsiyaning zamonaviy texnik ta’minoti.**

Fotokompozitsiyaning zamonaviy texnik ta’minotini imkoniyatlaridan foydalanish. Fotokompozitsiya fanining amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borish. Har bir mavzu yuzasidan talaba ma’lum amaliy kinokadr olish.



## **2-amaliy mashg‘ulot: Fototasvirga olishda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash.**

Fototasvirga olishda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash. Fotokompozitsiya fani orqali badiiy fotografiyani o‘rganish. Zamonaviy innovatsion texnologiyalari va axborot resurslari bilan to‘la ta‘minlash.

Fan doirasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish. San‘atga oid ilmiy manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni rivojlantirish. Milliy va jaxon kino maktablari va yo‘nalishlari yutuklarini taxlil qilish.

## **3-amaliy mashg‘ulot: Fotokopozitsiyaning yangi qirralarini tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash.**

Fotokopozitsiyaning yangi qirralarini tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash. Turli janrlarda va sohalarda oddiy foto olishdan murakkab badiiy fotografiya, professional kadrlarni tahlili bilan muntazam ravishda rahbar nazorati ostida shug‘ullanib borish. Yakka mashg‘ulotlar talabada tajribalar vositasida o‘z ijodiy yo‘nalishini aniqlash va zarur ko‘nikmalarni shakllantirish.

## **4-amaliy mashg‘ulot: Fototasvirga olishda zamonaviy texnikalarni qo‘llash uslublari. Fotokompozitsiyada yangi kashf etilgan kompozitsion uslublarni -amaliyotda qo‘llash.**

Fototasvirga olishda zamonaviy texnikalarni qo‘llash uslublari. Fotokompozitsiyada yangi kashf etilgan kompozitsion uslublarni -amaliyotda qo‘llash. Badiiy tafakkur madaniyatini va butungi kunning san‘at amaliyotini tanqidiy yondoshuv orqali o‘zlashtirish malakasini shakllantirish. O‘quv dasturiga kiritilmagan ayrim masalalarni nazariy jihatdan mustaqil tadqiq etish. Keng kamrovli amaliy materialni mustaqil tahlil etish. Tankidiy tahlil, kinooperatorlik san‘atini tushunish.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko‘chma mashg‘ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli uslublarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim jarayoni – bir tizim. Uni tashkil etuvchi elementlar o'quv maqsadi, kutilayotgan natija, o'qituvchi, talaba, ta'lim mazmuni, ta'limning metodi (usuli), ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baholashdir.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqoridagi keltirilgan barcha elementlardan to'g'ri foydalanish talab etadi.

### **Ta'lim tizimida zamonaviy metod hamda usullardan foydalanish**

Ilg'or o'qituvchilar ta'lim tizimida faol metodlarni qo'llaydilar. Masalan global ta'lim loyihasi bo'yicha interfaol usullardan foydalanib, o'z faoliyatlarida suhbat, seminar-trening, munozara, muloqot, diagramma, insert, klaster, aqliy hujum, interfaol induktiv, deduktiv, muammoli tarzda ma'lumotlarni beradilar.

**Klaster** – inglizcha so'z bo'lib – bosh, bir shingil, “Bir bosh uzum” shakli, konus ma'nosini anglatadi.

**Klaster** – bu ma'lum bir mavzu bo'yicha talabalarni erkin, ochiq o'ylashga yordam beruvchi strategiya bo'lib, fikrlashning (notekis) shaklidir. Mazkur usuldan darsning fikrlash bosqichida foydalanish mumkin.

### **Klasterlarga ajratish:**

1. Qog'oz va doskaning o'rtasiga ta'rif, asosiy so'z yoki gap yoziladi.
2. Ushbu mavzuga oid xayolingizga kelgan barcha so'z va gaplarni yozing.
3. G'oyalar kelishi bilan ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang va xatolar haqida o'ylamaslikka harakat qiling.
4. Berilgan vaqt mobaynida xayolingizga kelgan fikrlarning barchasini yozing.

Klasterga ajratish egiluvchan tizim bo'lganligi sababli dars maqsadidan kelib chiqqan holda uni guruhda, yakka tartibda barcha fanlarda qo'llash mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – o'qituvchining tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba va o'qituvchidan – mustaqillik, ijod, irodaviy sifatlarni talab etadi.

### **“Assesment” -texnologiyasi.**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon

qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 ballgacha baholanishi mumkin.

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

SWOT tahlil:

S – strength (kuchli)

W – weakness (zaif)

O – opportuniyies (imkoniyatlar)

T – threatens (xatarlar)

Tahlil qilish uchun 2x2 o‘lchamdagi matritsa tuziladi:

S	W
O	T

#### *Namuna Muzeyning raqobatli SWOT tahlili*

	<b>Manfaatli omillar</b>	<b>Manfaatsiz omillar</b>
<b>Ichki muhit omillari</b>	<p><b>S – kuchli tomoni.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqori malakali xodimlardan iborat jamoa.</li> <li>2. Boshqa san’at muassasalari bilan o‘rnatilgan manfaatli aloqalar.</li> <li>3. Ko‘rgazmalar tashkil etishda innovatsion shakllarni qo‘llash.</li> </ol>	<p><b>W – zaif tomonlari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshqaruv jarayonining salbiy tomonlari (sustkashlik).</li> <li>2. Ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi (m-n: marketolog)</li> </ol>
<b>Tashqi muhit omillari</b>	<p><b>O – imkoniyatlar.</b></p>	<p><b>T – xatarlar.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Obyektiv san’at talabining pasayib ketishi.</li> </ol>

	1.O‘z eksponatining noyobligi bo‘yicha muzeyning taniqlilik darajasi. 2. Deyarli kuchli raqobatning mavjud emasligi. 3. Xalqaro madaniy aloqalarda qatnashish imkoniyatlari.	2. Ichki raqobat: mutaxassis kadrlarning boshqa ish joyiga o‘tib ketishi. 3. Tashqi raqobat: Ko‘plab muzey va galereyalarning mavjudligi.
--	--	--

### **Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi.**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### **Metodni amalga oshirish tartibi**

- trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

- Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu.

*Namuna:*

<b>Galereya auditoriyasini segmentlash</b>					
<b>Daromadlari bo‘yicha</b>		<b>Yoshi bo‘yicha</b>		<b>Jinsi bo‘yicha</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni

o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi: F –fikringizni bayon eting, S – unga sabab ko‘rsating, M – misol keltiring, U- umumlashtiring.

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna**

**Fikr:** “Muzey brendini shakllantirishda doimiy tashrif buyuruvchilar hatti xarakati ta’sir etadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**“Insert” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			

“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			
--	--	--	--

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilarning mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
  - o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
  - belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
  - har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

*Namuna:* “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Art marketing	tashkiliy va badiiy maqsadlarga erishishda iste’molchilar bilan o‘zaro manfaatdorlik munosabatlarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan integrashtirilgan menejment jarayoni	
Pablik rileyshinz	jamiyat bilan aloqa o‘rnatib, uni yo‘lga qo‘yish, ya’ni san’atkor yoki rassom shuhratini yoyish uchun san’at asari yoki uning xizmatlarini targ‘ib etish, reklama qilish	

Pablisiti	mutaxassislar va ulgurji xaridorlarga mo'ljallangan targ'ibotni olib borish	
-----------	---	--

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:


- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

#### Venn diagrammasida ishlash qoidalari:





## Venn diagrammasi



### “Blits-o‘yin” metodi.

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: Fotokompozitsiya modulini o‘qitishdagi an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni taqqoslash.

##### Reja:

1.1. Fotografiya san’atida zamonaviy texnikalar orqali tasvirga olishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.


1.2. Zamonaviy texnik ta’minot

**Tayanch iboralar:** Fotograf, Obraz, yorug‘lik, rakurs, postanovka, tasvir, kompozitsiya, montaj, uslub.

#### 1.1. Fotografiya san’atida zamonaviy texnikalar orqali tasvirga olishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar

Fotografiya so‘zi grekcha “Foto - nur”, “grafiya - yozmoq” ya’ni nur bilan yozmoq began ma’noni bildiradi. Fotografiya san’at turi bo‘lib, badiiy ijod turi: fotografiya asrlari (surat) vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san’at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat foto san’atida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol qilib, (fizika, kimyo, optika) va texnikaning ma’lum yutuqlari zamsinida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnikaviy san’at tarixida dastlabki bo‘lgani bilan ajralib turadi. Dunyoda birinchi bo‘lib, fotografiyaga qadam qo‘yganlar va fotografiya ixtirochisiga aylanganlar.

##### *kamera obskura*



Lui Jak Dagger u asli rassom bo‘lib, (1787-1851) yillarda yashab o‘tgan. Uning dastlabki suratlari rang-tasvirning an‘anaviy natyurmort, manzara va portret janrlarida yaratildi.



*Natyurmort 1897*



*Geliografik tasvir 1826*

Birinchi bo‘lib, surat olganlardan biri fransiyalik Jozef Nissifor Nepsdir. U (1765-1833) yillarda yashab o‘tgan. Neps o‘zining birinchi urinishida ya‘ni 1826 yilda birinchi suratini chiqarishga muvofiq bo‘ldi.

Shular qatorida angliyalik Vilyam Foks Genrix Talbot (1800-1877) yillarda yashab o‘tgan. U o‘zining birinchi suratini 1835 yilda olishga muvofiq bo‘lgan.

Ilk davr fotografiyasi ochiqdan-ochiq rang-tasvir san‘atiga taqlid qildi. 19 asr tasviriy san‘atidagi fotografiyada o‘zining ikkinchi nusxasiga ega bo‘ldi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yo‘nalish asoschilari foto san‘atin yuksak tasviriy madaniyatga erishishi nafis san‘atlar bilan uzviy bog‘lanishi uchun qariyb uch asr davomida taniqli ijodkordlarning mehnati singdi.

Foto san‘atining tarixida AQShlik E Maybridj tomonidan turli ko‘rish nuqtalari bir nechta kamerada suratga olgan, suratlari muhim voqea bo‘ldi. Bu yangilik tufayli 20 asr birinchi choragida foto san‘atida real borliqni yangicha talqin qilishga qiziqish ortdi. Ikkinchi jahon urushida fotoreportajlar foto san‘atining yangi taraqqiyoti bosqichi bo‘ldi. Urush fotoyilnomalrini yaratishda, turli mamlakatlar repartyorlari o‘z hissalirini qo‘shdilar.

1950-80 yillar xujjatli foto san‘at jahonning eng yirik agentliklari tomonidan jo‘natilgan reportyorlarning sayyohatda yaratgan janrli fotografiya rivoji bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston hududiga 19 asrning ikkinchi yarmida Yevropada kelgan ko‘plab sayyoh va tijoratchilar hamda boshqa soha egalari yurtimizning bebaho madaniy merosi ayniqsa, me‘morchilik obidalari (erigatsiya) san‘ati nafis hunarmandchilik san‘ati va odamlarning yashash tarzi madaniyati aks ettirgan va ularni tarqatganlar.



Dastlabki o‘zbek foto ustalaridan biri xivalik Xudoybergan Devonov bo‘lib, u nafaqat foto usta, qolaversa kinooperatorlik bo‘yicha ham o‘ziga xos mahorat egasi edi. X.Devonov (1878-140) yillarda yashab o‘tgan. U 1907-1908 yillarda Moskva va Peterburgdan teleskop, gramafon, foto va kino apparaturalarni olib keldi.

Xiva va Urganch bozorlarida film namoyish qildi va o‘zi foto laboratoriya tashkil qildi. Fotografiya so‘zi grekcha “Foto - nur”, “grafiya - yozmoq” ya’ni nur bilan yozmoq began ma’noni bildiradi. Fotografiya san’at turi bo‘lib, badiiy ijod turi: fotografiya asrlari (surat) vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san’at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat foto san’atida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol qilib, (fizika, kimyo, optika) va texnikaning ma’lum yutuqlari zamsinida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnikaviy san’at tarixida dastlabki bo‘lgani bilan ajralib turadi. Dunyoda birinchi bo‘lib, fotografiyaga qadam qo‘yganlar va fotografiya ixtirochisiga aylanganlar.

Bugungi kunda fotografiya avvalgi yillarga qaraganda ancha keng imkoniyatlarga ega bo‘lib turli sohalarda qo‘llanila boshladi. Foto anjomlarini ishlab chiqaruvchilar kun sayn takomillashib, fotosur‘atga olish jarayonini yengillashtiruvchi, fotografiyaning sifatini oshiruvchi tomonlariga ahamiyat berib faoliyat doirasini yuksaltirmoqdalar. Har qadamda ishlabturuvchi fotolaboratoriyalar esa, bir soatda yoqerishilgan natijalarni qo‘rish imkoniyatini beradi.

Fotosur‘atchilar uchun aniq fokusdagi fotografiyaga erishish shu qadar muhimki, ular hatto tarjima qilinganda “fokusni ushlab” ma’nosini beruvchi anglatuvchi “teck sharp” atamasini o‘ylab topganlar. Ko‘pchilik “fokusda” bo‘lmagan fotografiyalar yaratishga mjbur bo‘lganlar. Bu kurs sizga bunday xolatlarda yordam beradi deb umid qilamiz.

Ba’zan sifatli fotografiyalarga erishish uchun fotoapparatning sozlamasini yoki tasvir rejimini o‘zgartirish kifoya emas. Ayrim hollarda professional fotosur‘atchilar foydalanadigan jihozlar xarid qilishning o‘zi yetarli bo‘ladi. Jihozlar va aksessuarlar raqamli fotografiyalar kabi muhim ahamiyat kasb etgan sohani topish juda mushkul.

Har bir fotosura’atchi sifatli natijaga erishish uchun professional fotoijodkorlar foydalanadigan aksessuarlarni qo‘llashi maqsadga muvofiqligini anglab yetishi darkor.

Ba'zi insonlar raqamli fotoapparatlarni xuddi avvalgiday plyonkali, faqatgina plyonkasi bepul deb hisoblaydilar. Raqamli fotoapparat faqatgina fotokameraning yangi turi hisoblanib qolmay, balki, bizga avval boshqa fotokameralarda mutlaqo uchramagan yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Mazkur kurs professional fotosur'atchilarning o'z sarf-xarajatlarini qoplash uchun barcha raqamli texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanishlari haqida tasavvurga ega bo'lishda yordam beradi<sup>1</sup>.

**Shtativ.** Fokusni ushlab uchun bir qator shartlar mavjud. Bu eng oddiy narsadan, ya'ni shtativni ishlatishdan boshlanadi. Amaliyotda professional fotosur'atchilar bilan havaskorlar orasida yagona farq mavjud. Professional fotosur'atchilar doimo shtativda sur'atga oladilar. Bu xavaskor fotosur'atchilar boy beradigan asosiy jarayon xisoblanadi. Shtativning asosiy funksiyasi fotoapparatni mustahkamlangan holatda ushlab turishdan iboratdir.

**“Sharovaya golovka”** – tasvirning ravshanligini yaxshilashga yordam bermasdan, tasvirning ruhiy holatini yaxshilaydi. “Sharovaya golovka” qo'llanilganda oddiy harakat bilan fotoapparat holatini tez va oson istalgan burchakka qo'ygan holda o'zgartirish mumkin. Bu qurilmaning ijobiy tarafi shuki, uning yordamida fotoapparat maksimal, ishonchli mustahkamlanadi va sozlanib sur'atga olish tayyor bo'lganda u yoki bu tarafga siljib ketmaydi.

**Tortilish relizi (Spuskovoy trosik)** – bu maxsus sim bo'lib uning uchida fotoapparatga ulanish uchun ulagich, boshqa bir uchida esa bir qancha tugmalar mavjud. Ushbu moslama yordamida bosish tugmasini ishlatmagan holda fotoapparat zatvorini pastga tushurish mumkin. Fotoapparat tugmasini bosgan holda fotosur'atchi xiyol kamerani siljitadi. Siljitish darajasi tasvir mukammal tiniq bo'lmaydigan darajada bo'ladi. Bir qarashda e'tibor bermasa ham bo'ladigan ushbu holat kelgusida fotografiya sifatiga ta'sir o'tkazishi aniq.

**“Ko'zguning taxminiy balandligi” funksiyasi (Funksiya “Predvaritelniy podyom zerkala”)** – Nikon fotoapparatlarida bu tushuncha Exposure Delay Mode (eksponirovkani ushlab turish rejimi), Canon fotoapparatlarida esa – Mirror Lockup (ko'zguning taxminiy balandligi) deb nomlanadi. Quyida keltirilgan funksiyaga ko'ra fotoapparat ko'zgusi sur'atga olinayotgan vaqtda tebranishdan saqlangan balandlikda mustahkamlanadi. Bu ekspozitsiyani aniqlash kabi tasvirning aniqligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Boshqa murakkab usullar bilan birgalikda bu funksiya ideal ravshanlikka erishish uchun yana bir muhim bosqich hisoblanadi.

**Tebranishni kamaytirish funksiyasi (Funksiya podavleniya vibratsii).** Nikon firmasining ko'pgina zamonaviy obyektivlarida tebranishni kamaytirishning yangi funksiyalari mavjud: Vibration Reduction (VR). Canon obyektivlarida shunga o'xshash, tasvirni barqarorlashtirish funksiyasi mavjud: Image Stabilization (IS). Ular shtativsiz ishlatilganda yoki yetarli yorug'lik bo'lmaganda tasvirning ravshanligini yaxshilash uchun mo'ljallangan. O'z mohiyatiga ko'ra bu funksiyalar agar “zaslonka” yetarlicha ko'p vaqt ochiq bo'lsa obyektiv xarakatini stabillashtiradi. Fotosur'atchida shtativ ishlatish imkoni bo'lmasa va yaxshi yoritilmagan xonada tasvirga olish lozim bo'lsa (shtativ o'rnatib bulmaydigan joylar ya'ni to'y

---

<sup>1</sup> Kelby Scott. The Digital Photography Book

tantalarini sur'atga olish, ba'zi sport musobaqalarida, shaharda yoki shunchaki xududlarida) bu funksiya mo'jiza yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Tasvirning maksimal aniqligini ta'minlovchi optimal diafragma ko'rsatgichi (Optimalnoye znachenije diafragmi dlya maksimalnoy chyotkosti snimka).** Ko'pchilik obyektivlar uchun diafragmaning optimal ko'rsatgichi – bu maksimal ochiq diafragmaning ikkinchi ko'rsatgichiga yaqin (boshqacha qilib aytganda, diafragmaning optimal ko'rsatgichi uning maksimal ko'rsatgichidan ikki qadam narida turadi). Shunday qilib, agar diafragmaning minimal darajadagi ko'rsatgichi  $f/2,8$  tashkil qilsa unda diafragmaning tasvir ravshanligi uchun optimal ko'rsatgichi  $f/5,6$  yoki  $f/8$  ya'ni bu ko'rsatgich  $f/2,8$  dan ikki ko'rsatgich keyn turadi.

Kun sayn raqamli fotografiya jadal rivojlanib, raqamli fotoqurilmalar yanada funkcionalligi oshib, ular narx navosi jihatidan aholi ehtiyojini qondira oladi. Raqamli fotografiyaning paydo bo'lishi yangi shakldagi san'atning vujudga kelishi bilan kuzatiladi. San'at ushbu turi, ixlosmandlarni o'ziga jalb qilib bugungi kunda fotoijodkorlarning fotoasarlari dunyoning qator yirik muzeylarida tashkil etilayotgan ko'rgazmalar ekspozitsiyalaridan o'rin egallab kelmoqda. Fotoindustriyaning yangi erasi boshlandi, ya'ni raqamli fotokameralar bilan birga fotografiya to'g'risida ham yangi tushunchalar paydo bo'ldi.

Ilk raqamli fotoqurilmalar savdo shahobchalarida bir necha yil avval paydo bo'lgan. Biroq, avvallari ularning narx-navosi juda baland bo'lib, ularni xarid qilish harkimga emas edi. Hozirda, sotuvda narhi 150 dollardan oshmaydigan boshlang'ich darajadagi fotoapparatlar mavjud bo'lib, bu raqamli fotokameralarni qimmatbaho qurilmalardan ommabop foydalaniladigan qurilmalar qatoriga qo'shadi.

Raqamli fotokameralar, tasvirlarni redaktorlash uchun kompyuter va dasturiy ta'minot yordamida istalgan ijodiy g'oya va qobiliyatlarni amalga oshirish mumkin.

Raqamli fotosur'atlarni yaratish texnologiyasi insonlarga vizual axborotni geografik joylashuvdan qat'iy nazar bir zumda almashinish imkonini beradi. Raqamli fotokameralar kompyuter texnologiyalarining xamda foto san'atining sintezi xisoblanib, ular bir vaqtning o'zida ham raqamli shedevrlar yaratish vositasi, ham jiddiy kommunikatsion jixoz xisoblanadi.

Har qanday boshqa texnik yangilik kabi raqamli fotoapparatlar bir qarashda foydalanishga murakkabdek tuyulishi mumkin. Raqamli kameralar sotiladigan do'konlarga tashrif buyurilganda ham, turli hil tushunarsiz so'zlar va belgilar, masalan, megapiksel, JPEG va hokazo. Ushbu texnik xarakteristikalar professionallar uchun qandaydir ma'noboradi. Biroq, siz oddiy iste'molchi bo'lsangiz, sotuvchi tomonidan ta'rif berilgan: "ushbu model 2,3 megapikselli sensor bilan ta'minlangan, JPEG, TIFF, GIF, GRGB formatlariga ega. Ob'ktiv Vario-Sonnar F:2,0-2,5  $f=7-21$ mm (33-100 mm 35 mm ekvivalentida) ISO 100, 200, 400, viderjka 8 – 1/1000 c, diafragma F:2 – F:8,9" kabi so'zlarning o'zi kifoya bo'lib, bunday murakkabliklarga qo'l urmay plyonkali fotoapparatlarni afzal deb bilasiz.

Fotografiya san'at turi bo'lib surat vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san'at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat, foto san'atida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol bo'la oladi, va texnikaning ma'lum yutuqlari zaminida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnikaviy san'at tarixida dastlabki bo'lgani bilan ajralib turadi.



Ilk davr fotografiyasi ochiqdan-ochiq rang-tasvir san'atiga taqlid qila boshladi. 19 asr tasviriy san'atidagi fotografiya o'zining ikkinchi nusxasiga ega bo'ldi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yo'nalish asoschilari foto san'atini yuksak tasviriy madaniyatga erishishi nafis san'atlar bilan uzviy bog'lanishi uchun qariyb uch asr davomida taniqli ijodkorlarning mehnati singdi.


Bugungi kunga kelib raqamli fotografiya alohida axamiyat kasb etadi va foto san'atining ilg'or turlaridan biri xisoblanadi.

Raqamli fotografiya shubxasis yaxshi kashfiyot bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh yetishib kelayotgan talabalarimizga uning qulayligi shundan iboratki, olingan tasvirni ko'rish, o'chirish va xattoki kompyuter orqali turli programmalar yordamida tasvirni tiniqligini yaxshilash va unga turli bezaklar berish imkonini beradi.

Raqamli fotografiyaning qulaylik tomonlari va uning imkoniyatlari hozirgi zamon talabiga mos keladigan zamonaviy texnologiyalarni foto va kino san'tida qo'llash imkoniyatini oshirish malkali mutaxasilar yaratish maqsadida o'rganiladi.

Ko'pchilik xavaskor ijodkorlar raqamli fotografiyani go'yoki tugmani bosib osongina tasvir olish deb bilishadi. Ammo bu yangi zamon texnologiyasi an'anaviy fotografiya singari professionallikni talab etadi.

Eng sara raqamli fotoapparatlar keng imkoniyatlarga, kasbiy plenkali



fotoapparatdan ko'ra mukammalroq bo'lgan turli uskunalarga ega bo'ladi.

Saqlanish va fokus masofasini avtomatik moslashtiruvchi tizimlar fotosurat olish jarayenining natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq to'liq avtomatlashtirilgan apparat fotosuratga olish jarayenini nazorat qilish yoki ayrim amallar yordamida berilgan avtomatik xususiyatlar orqali tasvirlarning optimal sifatini ta'minlashga imkon beradi


An'anaviy va raqamli fotografiyaning farqi shundaki, Raqamli fotoapparatda plenklar o'rniga yorug'likka chidamli PZS-matritsa qo'llaniladi. U yorug'likni rangli nuqtalar – piksellarga aylantiradi. Ko'pgina fotoapparatlar "megapikselli" chunki ular million (M) pikseldan ortiq fayllarni qabul qilish xususiyatiga ega.

Ilk raqamli fotoapparat 1991 yilda Sony kompaniyasi o'zining PZS matritsali "Sony Mavica" apparatini dunyo bozoriga chiqardi.


Lekin bu apparat to'liq raqamli deb bo'lmaydi. Keyinchalik Kodak kompaniyasi o'zining to'liq raqamli funksiyani bajaradigan DCS 100 apparatini ishlab chiqardi.

Bugungi kun foto san'atida zamon talabiga mos keladigan yangidan yangi fotoapparatlar yaratilmoqda.

Ushbu zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishda kino va televideniya keng qo'llanilishda yuqori darajadagi professional malaka hamda ko'nikma bilan bir qatorda kinematografiyaning o'ziga xos texnologiyasi va imkoniyatlarini o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Qolaversa, kinematografiya sohasidagi bo'lajak mutaxassisning foto yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi.




**1. Obektiv (predmetdan qaytayotgan yorug'lik); 2. Diafragma; 3. Malumot yetkazuvchi ekran; 4. Prizma; 5. Videoqidiruv; 6. Oyna; 7. Zatvor; 8. Matritsa;**



**(Plyonkali fotoapparat)**

**Plyoni**  
**Bu**



*kamerada tasvir obektiv orqali foto tasmaga*

*tushuriladi.*

**Obektiv**


*Obektivning funksiyasi – predmetlardan qaytayotgan yorug'likni plyonkaga uzatadi.*

**(Raqamli fotoapparat)**

*Raqamli fotoapparat yaratilgan rasviri raqamlashtirib yozib oladi.*

**Obektiv** *Predmetlardan qaytayotgan yorug'likni yig'ib PZS matritsaga uzatadi.*

Raqamli fotoapparatning ishlash tartibi plyonkalikdan unchalik farqqilmaydi. Ko'rinishidan har ikkala fotoapparat deyarli birxil. Ularning har ikkalasida obektivga qaratilgan obektiv va foto tasvirga olish uchun zatvor tugmasi mavjud.





Ularning farqi ichki mexanizmidadir. Raqamli fotoapparatda plyonka oʻrnatilgan joyda yoritish sensor toʻri bilan qoplangan kichikroq plastinka joylashgan. Sensorlar piksel (tasvir elementi soʻz birikmasining qisqartmasi) deb nomlanadi. Sensor kompyuterda ham mavjud boʻlib, displeydagi eng mayda elementlardan iborat va ekrandagi tasvirning oʻlchov birligi hisoblanadi. Eng sodda raqamli fotoapparatda million atrofida piksel (megapiksel) boʻladi. Takomillashgan fotoapparatlarda bir necha millionlab piksel boʻladi. Piksellar qanchalik koʻp boʻlsa, shunchalik koʻp mayda detallar boʻlishi va shunchalik kattaroq xajmdagi olish imkonini beradi.

Har bir sensorida filter boʻladi, u rangli plyonkada boʻyoq moddasi sifatidagi qizil, yashil va koʻk ranglarni oʻtkazadi. Har bir piksel tasvirning maʼlum nuqtasida turli miqdordagi ranglarni toʻplaydi.

Zatvor tugmasi bosilganda fotoapparat har uch rangdan keraklisini har bir piksel orqali aks ettiradi. Kopyuterdagi singari fotoapparatdagi mikro protsessor rang haqidagi axborotni raqamli faylga yigʻadi va faylni fotoapparatdagi xotira qurilmasiga saqlab qoʻyadi. Soʻngra yakuniy faylni kopyuterga oʻtkazish mumkin va grafik dastur yordamida qizil, koʻk va yashil axborotlashtirilgan millionlab elementlarni nigohiy tasvirda qayta yaratish imkonini beradi.

Raqamli fotokameralar kundan kunga mashhur boʻlib, ularning qoʻllanilish doirasi kengayib bormoqda. Endilikda uyali telefon moslamasiga oʻrnatilgan fotokamera ham xech kimni hayratda qoldirmaydi. Bu degani, raqamli fototasvirlar yaratish ommalashib bormoqda. Tabiiyki, raqamli fotografiyani tadbiiq etish zaruriyati paydo boʻlmoqda.

Zatvor tugmasini yoki kompozitsiyani tanlashdan avval, kamera qanday tasvirni olishi va qanday uni saqlashi kerakligini aniqlash lozim. Koʻpgina fotokameralarda tasvirning siqish (sjatiye), yaratilayotgan faylni formatini aniqlash kabi imkoniyatlari koʻzda tutilgan. Koʻpgina sifatli obyektivlar yorugʻlikdan saqlovchi blendalar bilan komplektda sotiladi. Blenda moslamasi ochiq havoda, quyoshli ob-havo sharoitida tasvirga olish jarayonida vujudga keladigan blikni bartaraf etish uchun qoʻllaniladi. Lekin professional fotosurʻatchilar yorugʻlikdan saqlovchi blendani xatto yopiq xona sharoitida ham yechmaydilar. Buning sababi, blenda oʻz navbatida obyektiv linzasini himoyalaydi.

Maʼlumki, linza obyektiv korpusining plastik chekkasida joylashgan va hiyol qattiq jism bilan tutashib ketgan holda qirilish, dars ketish, sinish holatlari kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari linzada qoʻl barmoqlarining izi ham dogʻlar qoldirishi mumkin. Blendani obyektivga oʻrnatgan holda fotoijodkor linzani tashqi muhitdan himoyalaydi. Qisqasini aytganda, blenda, obyektiv linzasini fotoapparatning qattiq jismlar bilan toʻqnashish, qoʻldan tushib ketish holatlarda saqlaydi.

Maʼlum bir vaqtlar Internet forumlarida ekspozitsiyaning hiyol yetarli boʻlmagan (diafragmaning bir boʻlimini olish) mavzuida muhokamalar avj olgan edi. Fotosurʻatchining maqsadi – optimal (toʻgʻri) ekspozitsiyani tanlashdan iborat. Agar fotosurʻatchi oldida noiloj holat, yaʼni – ortiqcha ekspozitsiya (juda och rangli fotografiya) va kam, yetarli boʻlmagan ekspozitsiya (haddan ziyod toʻq fotografiya) oʻrtasidagi tanlovga duch kelinsa, har doim koʻp ekspozitsiyali tasvirni tanlash lozim. Sababi, bunday tasvirda raqamli shovqin (sifrovoy shum) nisbatan kamroq

seziladi. Raqamli shovqinlarning ko'pgina qismi doim to'q tusdagi fragmentlarda mujassamlashadi. Shuning uchun, to'q tusdagi fragmentlarni Photoshop dasturida ochartirilganda raqamli shovqin kuchaytiriladi. Demak, hiyol och tusdagi tasvir olinganda (ortiqcha ekspozitsiyali), uni to'q tusga keltirish jarayonida raqamli shovqin kuchaymide. Xullas, yuqorida keltirilgan misollarning hammasi noiloj holatlarga hosdir. Qolgan barcha holatlarda, optimal ko'rsatgichli ekspozitsiya tanlanishi kerak.

RAW – yuqori sifatli tasvir fayllarining maxsus formatidir. Zamonaviy fotosur'atchilarning aksariyati RAW formatining JPEG formatidan ikki afzal tomonini belgilaydilar:

1. Siqilgan (sjatiye) tasvirlarning yuqori sifati (JPEG formatining fayllari siqilgan fayllar bo'lib, ularning hajmni kichraytirish maqsadida ma'lumotning bir qismi olib tashlanadi).

2. Yaratilgan tasvirlar fotoapparat sensorida qanday muhrlansa shundayligicha qoladi, ya'ni, fotoapparatning avtomatik ravishdagi qayta ishlash funksiyasi jarayonidan o'tmaydilar. (JPEG formatidagi fayllar tasvirga olish jarayonidayoqtasvirlarni yanada sifatliroq bo'lishi uchun biroz rang korreksiyasi, ravshanlikni yaxshilash (uluchsheniye rezkosti), kabi jarayonlaridan o'tadi<sup>2</sup>.

RAW formatidagi tasvir jarayonida tasvirni avtomatik korreksiyasi funksiyasi o'chirilgan. Hamma sozlamalarni ("balans belogo", ekspozitsiya, soyalar va boshqa parametrlar) kelgusida mustaqil tarzda Adobe Photoshop yoki maxsus muharrirlar yordamida amalga oshiriladi. Professionallar ushbu holatdagi ijod erkinliklarini xush ko'radilar. Bunda ular sozlamalarni mustaqil ravishda tanlab, eksperementlar yaratadilar. Original tasvirga zarar yetkazilishi (RAW formatidagi fayl go'yoki o'ziga hos raqamli negatīv) borasida qayg'urishga ham o'rin yo'q.

## 1.2.Zamonaviy texnik ta'minot

Xozirgi kunda zamonaviy texnikaning rivojlanishi ijodkorlarni texnik qulayliklar bilan ta'minlamoqda. Bu ijodiy ishlarining sifat darajasida o'z aksini topmoqda. Lekin shuni ta'kidlash kerakki texnikaning rivojlanishi va uning qulayliklari noprofessionallikni olib kelmoqda, afsuski o'z kasbining ustasi bo'lmagan shaxslar ham texnikadan oson foydalanmoqda.

**Obektiv:** Obektivning turini uning tiniqligi (razresheniyasi), tasvirning sifati, fokus masofasi, transfokatsiya darajasi, ekspozitsiyani va kattalashtirishni boshqarish kabi parametrlarini belgilovchi xususiyatlariga qarab tanlanadi. Shuningdek, turli obektivlarni kerakli kamerada ishlatilishi ham muhim omillardan biridir .

Obektivlarning yorug'lik o'tkazish qobiliyatini oshirish, ayniqsa, havo bilan chegaralangan obektivlar linzalarining ustki qatlamida aks ettirish koyeffitsiyentini kamaytirish uchun obektivlar nurlantiriladi, ya'ni ushbu ustki qatlamlarda ingichka shaffof plenkalalar hosil qilinadi, ularning sinish ko'rsatkichi shishaning sinish ko'rsatkichidan kam bo'ladi. Ingichka plenkalarning nurlantirish ta'siri yerug'liq

---

<sup>2</sup> Kelby Scott. The Digital Photography Book

to‘lqinlarining interferensiya hodisasiga asoslangan. Fizika kursidan ma’lumki, agar bir xil yo‘nalishli va bir xil tebranish davriga ega bo‘lgan (ya’ni bir xil chastotali) ikkita to‘lqin bir-biriga tegsa, tebranishlarning o‘zaro kuchayishi yoki susayishi yuz beradi va tebranishlarning to‘liq to‘xtashi amalga oshadi. Tebranishlarning kuchayishi yoki susayishi tegayotgan to‘lqinlar fazasining ayirmasiga bog‘liq bo‘ladi. To‘lqinlar xajmi bir-biriga to‘g‘ri kelsa, ya’ni fazalar ayirmasi to‘lqin uzunligiga teng bo‘lsa (yoki bir nechta butun to‘lqinlar uzunligiga teng bo‘lsa), kuchlanish yuqori nuqtasiga yetadi. Susayishning maksimal ko‘rsatkichi bitta to‘lqinning xajmi ikkinchi to‘lqinning chuqurligiga to‘g‘ri kelsa, ya’ni fazalar ayirmasi to‘lqin uzunligining yarmiga teng bo‘lsa (yoki bir nechta to‘liq to‘lqinlar plyus to‘lqinning yarim uzunligi), yuzaga keladi. Agar ushbu, so‘nggi amplituda holatida, ya’ni ikkala tebranish energiyasi bir xil bo‘lsa, to‘liq hodisa kuzatiladi; tebranishlarning o‘zaro to‘xtashi shishaga yurgizilgan ingichka shaffof plenkalarning interferensiyasi ta’sirini talqin etadi.

Obektivlarga ta’rif berilar ekan odatiy nutqda kam ishlatiladigan bir necha atamalar (termin)lardan foydalanishning o‘zi kifoya qiladi. Lekin bu atamalar bilan bog‘liq xodisalar ko‘pchiligimizga juda tanish.

Kim bolaligida quyosh va lupa yordamida gazeta qog‘ozini yoqib ko‘rgan? Buning uchun lupani (yig‘uvchi linzani) kattaroq diametrlisini tanlab olish va uni qog‘ozga nisbatan muayyan masofada quyosh nurlari yorqin nuqtaga aylanadigan xolda tutib turish lozim edi. Aynan shu yorqin nuqta va lupaning orasidagi masofaga **linzaning fokus masofasi** deyiladi. Linzaning fokus masofasi qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik katta tasvir chiza oladi. Aytgancha, linzalarni markirovka qilishda fokus masofaga teskari bo‘lgan yana bir kattalik qo‘llaniladi. Bu kattalik **linzaning optik kuchi deyiladi** va “dioptriy”da o‘lchanadi. 20 sm fokus masofasiga ega bo‘lgan linzaning optik kuchini topish unchalik mushkul emas. 20 santimetr, (0.2 metr) fokus masofali obektiv 5 dioptriy (+5) optik kuchga ega.

Obektiv diametrining fokus masofaga nisbati obektivning yorug‘lik kuchini belgilaydi. Linzaning yorug‘lik kuchi qanchalik kuchli bo‘lsa u shuncha ko‘p yorug‘likni yig‘a oladi va olingan tasvir juda yorqin xolda tasvirga olinadi.

### **Obektivning yorug‘lik kuchi**

Obektivning yorug‘lik kuchi uning nisbiy orqa teshigi ko‘rsatkichi bilan xarakterlanadi. Obektivning nisbiy orqa teshigi drob ko‘rinishida yoziladi va obektivning ishchi teshigi diametrining uning fokus masofasiga nisbatini ko‘rsatadi. Masalan, 1:4 nisbiy orqa teshikka ega bo‘lgan obektiv (markirovkaning  $f/4$  varianti uchraydi) nisbiy ishchi teshik o‘lchami fokus masofasi ko‘rsatkichidan 4 karra kam. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, obektivning “ishchi teshik” atamasi juda shartli. U na old linzaning diametriga va na diafragma o‘lchamlariga mos kelmaydi. Shu sababli obektivning nisbiy ishchi teshigini o‘lchab bo‘lmaydi, uni faqat xisoblab topish mumkin.

Obektiv nisbiy ishchi teshigi diametri qancha katta bo‘lsa u shuncha ko‘p “yorug‘lik kuchi”ga ega bo‘ladi. Linzaning yorug‘lik kuchi qanchalik ko‘p bo‘lsa u

shuncha ko‘p yorug‘likni yig‘a oladi va plyonkada juda yorqin xoldagi tasvirni chiza oladi.

### **Uzun fokus masofali obektivlar**

Uzun fokus masofali obektivlar deb fokus masofalari standart obektivlarga nisbatan sezilarli darajada katta bo‘lgan obektivlarga aytiladi va kamida 70-80 mm va undan katta fokus masofaga ega bo‘ladi. Uzun fokus masofali obektivlar obektga yaqinlashib borishning imkoni bo‘lmagan xollarda, masalan reportajlar suratga olishda, xayvonlarni, qushlarni suratga olishda keng qo‘llaniladi. Bunday obektivlar diqqatni tasvirga olish obektining muxim detallariga qaratishda juda qulaydir.



Yirik planlarda “keraksiz” orqa planni tanib bo‘lmas darajada xiralashtirib tashlash bilan tomoshabin diqqatini faqat aktyorning ijrosiga, uning ichki kechinmalariga qaratishga imkon beradi. Uzun fokus masofali obektivlar o‘zining tasvir dinamikasi bilan ham ekranda badiiy obraz yaratishda keng qo‘llaniladi. Bunday turdagi obektivlardan tezlik va shiddatlilik effektini yaratish maqsadida bir qator mashxur

filmlarda foydalanilgan. Kadrda uzun fokus masofali obektivlardan foydalanilganda tasvirga olingan portretlar o‘zining sirliligi bilan boshqa obektivlarda tasvirga olingan kadrlardan ajralib turadi. Portretlar mayin, tiniq va maftunkorlik va o‘ziga xos muxitni xosil qiladi. Umuman hozirgi zamon foto san’atini uzun fokus masofali obektivlar, umuman barcha turdagi obektivlarsiz tasavvur etish qiyin. Xar birining o‘z o‘rni va qo‘llanilish soxasi borki, bularning barchasi yagona maqsad: ekranda tasviriy ifodaviy obraz yaratishga yo‘naltiriladi

### **Keng burchakli obektivlar (Shirokougolniki)**

Keng burchakli obektivlar standart obektivlarga nisbatan ancha qisqa fokus masofaga ega bo‘ladi. Ko‘rish burchagi esa tabiiyki standart va uzun fokusli obektivlarga nisbatan ancha kengroq 35 mm va undan kam bo‘lgan obektivlar keng burchakli xisoblanadi.



Bu tur obektivlar xar xil janrlardagi filmlarda keng makonni qamrab olish zarur bo'lgan xolatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, masalan peyzajlarni, arxitektura inshootlarini tasvirga olish uchun.



Shuningdek bunday obektivlar cheklangan sharoitlarda (masalan: tor shaxar ko'chalarida, xonadonlarda) tasvirga olishda juda qulay.

Chunki uning fokus masofasi qisqaligi keng burchak ostida uchun katta masshtablarni qamrab olish xususiyatiga ega. Keng burchakli obektivlar tasvir tiniqligining yuqori diapazoniga ega ekanligi bilan ham qulaydir. Xatto obektivdagi masofa shkalasi xalqasi yordamida mo'ljal olib obekt fokusini to'g'rilanganda ham "xato qilish juda qiyin".

### **Juda keng burchakli obektivlar.**

Fokus masofasi 20 mm dan 24 mm. gacha keng burchakli obektivlarning bor imkoniyatlari va badiiy ifodaviy xususiyatlarini xis qilish imkonini beradi. Ko'rish (makonni qamrab olish) burchagi bu obektivlarda juda ham keng. Ular beradigan tasvirni ham boshqa obektivlar beradigan tasvir bilan adashtirib yuborish juda qiyin. Perspektivaning o'ziga xos, g'ayritabiiy qurilishi, rakurslar yordamida xosil qilinadigan effektlar bularning barchasi keng burchakli obektivlarning imkoniyatlaridir. Masalan yuqoridan pastga qaratilgan keng burchakli obektiv normal bo'yli insonni 1 metr bo'yli karlikka aylantirishi yoki kichkinagina bolakayni xaqiqiy gigantga aylantirib qo'yishi mumkin.



### **Ekstremal keng burchakli obektivlar**

20 mm fokus masofaga ega bo'lib 90 gradusdan yuqori ko'rish burchagiga ega bo'ladi. Bunday obektivlar olamga butunlay o'zgacha nazar bilan qarashga imkon beradi. Tasvirga olinadigan kadr kompozitsiyasini faqatgina videoiskatel tirqishiga qarabgina tuzish mumkin. Bunday obektivlar aksariyat intererlarda ishlashga mo'ljallangan.



(baliq ko‘zi) obektivlar. **Keng** burchakli obektivlarning juda ham o‘zgacha va antiqa turi bo‘lib ularning ko‘rish burchagi (fokus masofasidan qat‘i nazar) 180 gradusni tashkil etadi. Bunday g‘ayrioddiy effekt obektivlarga xos bo‘lgan Distorsiya deb nomlangan aberratsiyaning aksincha atayin kuchaytirilishi evaziga xosil bo‘ladi.

Fotografiya yaratishda keng burchakli obektivlardan nafaqat cheklangan sharoida ma‘lum bir obektni kadrda sig‘dirish, balki dramaturgiyadan kelib chiqqan xolda maxsus tasviriy ifodaviy vosita sifatida ham keng qo‘llaniladi. Inson ruxiyatida kechayotgan g‘ayritabiiy xislar, tuyg‘ularni tomoshabinga yetkazib berishda keng burchakli, umuman barcha turdagi obektivlardan mahorat bilan foydalana olish har bir bo‘lg‘usi fotogrofning vazifasidir.

### **Avtomat fokuslashdan foydalanish**

Ko‘pgina tasvirlar uchun fotoapparatga obyektни ko‘rsatib va zatvor knopkasini bosib avtofokuslashdan foydalanish mumkin. Fotoapparat obyektgacha bo‘lgan masofani o‘lchaydi va shunga fokuslashni sozlaydi. Bulardan qaysi biri osonroq, degan savol tug‘uladi. Afsuski, bu doim ham foyda beravermaydi. Foydalanuvchi tomonidan biroz yordam bermasdan masofani avtomat ravishda to‘g‘ri belgilay olmaslikning bir necha sabablari bor. Agar obyekt ortiqcha yorqin bo‘lsa (ayni shunda avtofokus tegishli fokusni belgilash uchun obyektни izlaydi), shunda avtofokus masofani noto‘g‘ri o‘lchashi mumkin. Agar siz nimani fokuslamoqchi bo‘layotganingizni avtofokus bilishiga ishonsangizfotoapparatni vaqtinchalik markazda bo‘lib qoladigan qilib siljiting, zatvor knopkasini yarim bosib, shunda fotoapparat fokuslanadi, so‘ngra uni qo‘yib yubormasdan o‘zingizga kerakli tasvirni hosil qilishi uchun fotoapparatni jildining.

Fokusda obyekt aks etishi fotoapparat obyektни ungacha bo‘lgan to‘g‘ri masofaga o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Avtomat fokus ko‘p hollarda to‘g‘ri sozlash mumkin.

### **Turli vspishkalar yordamida suratga olish.**

Agar, to‘y marosimini bino ichida “vspishka” bilan tasvirga odishga to‘g‘ri kelsa, unda fotosur‘atlarda yorug‘lik va soyalar shiddat bilan bir biriga o‘tib, notabiiy ko‘rinishga olib kelishi mumkin. Bunday effektни yo‘qotib, mayin yorug‘likka erishish uchun, ”rasseivatel”dan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Agar vspishka fotoapparatga o‘rnatilgan bo‘lsa, unda Soft Screyen Westcott micro Apollo softbox nomli firmaning 36 \$li rasseivatelidan foydalanishingiz mumkin

Uning yordamida vspishka yorug‘ligi bir maromda yoyilib, mayinlashadi, kelin kuyov va barcha mehmonlarni yoritish sifati yaxshilanadi. Shu yo‘l bilan, unchalik ko‘p vositalardan foydalanmay turib yanada professional natijalarga erishish mumkin.

### **Vspishkaning mayin yoyilgan yorug‘ligi (2 qism)**

Mayin yoyilgan yorug‘likni hosil qilish uchun yo‘nalgan yorug‘likdan foydalanish lozim. Aynan yo‘nalgan yorug‘lik obyektlar tasvirda tekkisdek ko‘rinib qolishini oldini oladi. Bu xolatda gap tashqi emas, balki o‘rnatilgan “vspishka” xaqida bormoqda. Tashqi “vspishka”larning afzalligi shundaki, fotosur‘atchi ularning yo‘nalishi va egilish burchagini o‘zgartirishi mumkin.

Sur'atga olish obyektining to'g'ri yuziga yo'naltirish o'rniga, bir yoki bir necha yuzadan yorug'likni aks ettirishga harakat qilib ko'ring:

1. Shiftdan. Agar, sur'atga olish xonasi shifti oq rangda bo'lsa va uning balandligi 3 metrdan oshmasa, "vspishka"ni 45° burchakda shiftga yo'naltirish mumkin. Bu xolatda shift yorug'likning bir qismini yutadi va obyektga aks etgan yorug'lik sezilarli darajada mayin bo'lib, odamning orqasida yorqin soya qoldiradi. Qolgan soya polda, kadr ortida qoladi. "Vspishka"ni yana qanday yo'nalishda burish mumkin?

2. Asistent yoki do'stingiz yorug'lik aks ettirgichni sur'atga olinayotgan odamning o'ng yoki chap tarafidan turib, yelkadan biroz balandda tutib turishi mumkin. Bu holatda "vspishka"ni u tomonga yo'naltirishingiz kerak bo'ladi. Yorug'lik yarmini aks ettirgich yutib, uning qolgan qismini sur'atga olinayotgan obyektga ma'lum burchak ostida yo'naltiradi. Bu holatda ham yorug'lik obyektga to'g'ridan to'g'ri tushmaydi. Soya sur'atga olish obyektining bir tomonidan yo'qolib, tasvirga bir qanday shakl baxsh etadi.

### **"Vspishka"dan ochiq havoda yoki to'y marosimlarida foydalanish**

Professional fotosur'atchilarning eng eski usullaridan biri bu – "vspishka" dan kunduz kuni quyosh yorug'ligi tushayotgan vaqtda foydalanishlaridir. Bir qarashda bu g'alati tuyuladi.

Fotosur'atchilar quyoshli kunda, kelin kuyovning yuzi yanada tabiiy ko'rinishi uchun, sur'atga olinayotgan insonlarning yuzidagi kuchli soyani yumshatish uchun "vspishka" dan foydalanib sur'atga oladi. Bundan tashqari, shunday usuldatsvirga olganda kelin kuyovning ko'zida yoqimli nur paydo bo'ladi. Tasvir omadli muvozanatlanganiga ishonch xosil qilish uchun, uni fotoapparatning JK (suyuq kristall ekrani) da tekshirib ko'ring. "Vspishka" marosim qatnashchilarining yuziga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilmasligiga axamiyat bering. Fotoapparingiz 45° burchakda ko'tarilgan bo'lishi kerak. Bunda uning yorug'ligi to'g'ri sur'atga olish obyektiga yo'naltirilgandagi kabi soyani yanada kuchaytirmasdan, balki uni yanada mayinlashtiradi. "Vspishka" 2,5-3 m masofada hato sur'atga olinayotgan saxnadan qaratilgan bo'lsa xamfoydada beradi.

### **O'rnatilgan "vspishka" go'yoki taqiqlingan qurol**

Fotoapparatning rnatilgan "vspishka"si faqatgina bugungi kunda insonga ma'lum bo'lgan, eng kuchli, qo'pol va yoqimsiz yoritishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Agar, siz kimdandir ranjigan bo'lsangiz, uni o'rnatilgan "vspishka" bilan sur'atga oling. Shunda siz undan a'lamingizni olasiz.

O'rnatilgan "vspishka" bilan sur'atga olishdan qochishning muhim bir necha sabablari mavjud:

1. O'rnatilgan "vspishka" ning yorituvchi yuzasi juda kichkina. Yoritish yuzasi qanchalik kichik bo'lsa, yoritish shunchalik qattiq bo'ladi.

2. O'rnatilgan "vspishka" kamera obyektivining ustida joylashgani uchun, sizda shaxtyorning ximoya kaskasi beradigan yorug'likka o'xshash natija paydo bo'ladi.



3. Fotoapparatning oʻrnatilgan “vspishka” sidan foydalanish sizga surʼatga olingan kishilarning koʻzi qizil boʻlib qolishiga deyarli 100 % kafolat beradi. Chunki “vspishka” obyektivga juda yaqin joylashgan boʻladi.

4. “Vspishka” toʻgʻridan toʻgʻri surʼatga olinayotgan obyektning yuziga qaratilgani bois, siz yetarli shaklga ega boʻlmagan tekis tasvirga erishasiz.

5. Siz yorugʻlikning miqdori va yoʻnalishini deyarli boshqara olmaysiz.

Oʻrnatilgan “vspishka”ning natijasi yorugʻlik bombasi bilan teng. Aynan mana shuning uchun koʻpchilik insonlar undan foydalanib surʼatga olganda, natijadan qoniqmaydilar. Shuning uchun, undan butunlay ilojisiz xolatdagina foydalanishingiz mumkin. Masalan, quyosh obyektning ortidan yoritayotganda, tasvirda faqatgina qora soya xosil boʻlmasligi uchun, uni biroz boʻlsa xam yoritishingiz kerak boʻlganda.

Professional fotosurʼatchilar erishadigan natijaga erishish uchun yuqoridagi rasmda koʻrsatilgan yoki quyida keltirib oʻtilgan, koʻplab afzalliklarga ega tashqi “vspishka”lardan foydalanish lozim.

A. Siz yorugʻlik yoʻnalishini oʻzgartirishingiz mumkin. Oʻrnatilgan “vspishka” da yorugʻlik toʻgʻridan toʻgʻri obyekt yuziga tushadi.

B. Tashqi “vspishka”ni yuqoriga qaratishingiz mumkin. Bu uning eng katta afzalliklaridan biridir.

C. Hatto fotoapparatga oʻrnatilganda ham, tashqi “vspishka” oʻrnatilgan “vspishka” dan balandroq boʻlgani bois, “qizil koʻz” effekti paydo boʻlishi ehtimoli ancha kamayadi.

D. Bu ancha yuqori yoritishni taʼminlovchi, ancha kuchli, nazorat qilish mumkin boʻlgan “vspishka” hisoblanadi.

Zamonaviy “vspishka”lar deyarli barcha ishni sizning oʻrningizga bajaradi.

Yuqorida keltirilgan maslahatlarga aʼmal qilib, siz “vspishka” yordamida ancha sifatli tasvir yaratish sirlarini bilib olgan boʻlishingiz kerak. Biroq, “Yorugʻlik hali ham juda kuchli” degan muammo oʻz yechimini topmadi. Gap shundaki “vspishka” ning oʻlchami juda kichkina. Yorugʻlik manbayi qanchalik kichik boʻlsa, yorugʻlik shunchalik qattiq boʻladi. Buni siz bilib olgan boʻlishingiz lozim. “Vspishka”dan tushayotgan yorugʻlikni mayinlashtirishning koʻplab usullari mavjud va har bir fotosurʼatchi bu muammoni oʻzining usuli bilan bartaraf etadi.

Ularning barchasi “vspishka” yorugʻligini mayinlashtirish uchun qandaydir usullarni qoʻllaydilar. Bu professional fotosurʼatchilarning uchinchi siri hisoblanadi. “Vspishka”dan kelayotgan yorugʻlikni mayinlashtirishning oson va tez usulidan biri “rasseivatel” lardan foydalanishdir. Kichik oʻlcham va massada u ajoyib natija beradi. Siz faqat uni “vspishka”ga kiydirib, 45 burchak ostida yuqoriga qaratishingiz kerak boʻladi xolos. Nikon SB-800 “vspishka”sini harid qilganingizda, toʻplamda SW-10 “rasseivatel”iga ega boʻlasiz. Shuni aytish kerakki, u aks yorugʻlikni ettirish mumkin boʻlgan binoda yaxshi natija beradi. Ochiq xavoda u deyarli oppoq boʻlib chiqadi.

### Nazorat savollari

1. Raqamli ekspozitsiya qanday amalga oshiriladi?
2. Ekspozitsiya nima?

3. Ato fokus nima?
4. Avto focus qanday amalga oshiriladi
5. Avto focus nima uchun kerak?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Kelby Scott. The Digital Photography Book, Peachpit Press, SBN 13: 978-0-321-47404-9, ©2007, 2009.

2. I. Meliqo'ziyev. "Kinoteleoperatorlik mahorati amaliy badiiy fotosuratga olish jarayoni". O'quv qo'llanma. Toshkent 2014y.

3. I. Meliqo'ziyev. "Fotokompozitsiya (ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi)" O'quv qo'llanma Toshkent 2014 y.

## **2-mavzu. Fotokompozitsiya modulini o'qitishda zamonaviy metodlarning afzallik tomonlari.**

### **Reja:**

2.1. Ko'rgazma qurollarining yaratilish mezonlari va ulardan foydalanish uslublari.

2.2. Yangi uslublarning kashf etilishi.

**Tayanch iboralar:** Fotograf, Obraz, yorug'lik, rakurs, postanovka, tasvir, kompozitsiya, montaj, Fotokamera, uslub.

### **2.1. Ko'rgazma qurollarining yaratilish mezonlari va ulardan foydalanish uslublari.**

Mazkur modul foto va kino san'atining fundamental xisoblanadi. Unda fotografiya asoslari, yoritish san'ati, fotokompozitsiyaning asosiy elementlari, bir so'z bilan aytganda, foto san'atining alifbosi o'rganiladi. Sanab o'tilgan jihatlarni amaliy nuqtai nazardan o'rganmay turib, kinoteleoperatorlik mahoratiga ega bo'lish mumkin emas, dastlab asosiy tushunchalar, ularning mohiyati o'rganilsa, keyinchalik talaba fotografik mahoratning nisbatan murakkab bo'lgan tomonlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Shu bilan birga kadrning koloristik yechimi, reportaj tasvirga olish, ko'p kadrli tasvir, fotocherk kabi tushunchalar bilan yaqindan tanishadilar.

Bugungi kunga kelib kinematografiya va uning tarkibiy qismlari san'atning ilg'or turlaridan biri hisoblanadi. Kino tasvirga olishlar esa ijodiy hamda ishlab chikarish sohalarida keng ko'lamda ko'llanilmokda. Shu bois bo'lajak kinematograflarda g'oyaviy-badiiy madaniyat, yuqori darajadagi professional malaka hamda ko'nikma bilan bir qatorda kinematografiyaning o'ziga xos texnologiyasi va imkoniyatlarini o'rganish zarurati tug' ilmoqda.

sohaning bo'lajak mutaxassislarining kelajakda kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish kobiliyatiga ega bo'lishlari mazkur fanning asosiy maqsadlaridan biri xisoblanadi. Qolaversa, fan kinematografiya sohasidagi bo'lajak mutaxassisning film yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilim va tajribaga ega

bo'lishini ta'minlaydi. U talabaga kinofilmning badiiy va texnik jihatdan sifatli bo'lishini ta'minlovchi jihatlarni o'rgatadi. Shuningdek, bu fanning o'ziga xos xususiyati shuki, u talabalarga predmetni mustahkam o'zlashtirish bilan bir katorda o'z ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish sharoitini yaratadi.

Kinoplyonkani ishlab chiqarish jarayoni ikki asosiy bosqichga bo'linadi: plyonkaning asosini ishlab chiqarish va asosga yorug'likni xis qiladigan emul'siya berish yo'li bilan yorug'likni xis qiluvchi plyonkani ishlab chiqarish.


Ilgari plyonka uchun asosan selluloiddan tayyorlanadi. 1869 yili aka-uka Xiattlar sifatida kashf etilgan selluloid birinchi marta yigirma yil o'tganidan keyin "Istmen-kodak" firmasi tomonidan fotoplyonka ishlab chiqarish uchun qo'llandi.

Barcha ifloslanishdan oson ajratib olish mumkin bo'lgan deyarli tabiiy sellulozadan iborat bo'lgan paxta selluloid ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyo bo'lib xizmat qildi.

Ishlab chiqarishga katta toylar ko'rinishida qabul qilinadigan paxta eng avvalo maxsus mashinalar yordamida mexanik ravishda changdan tozalanadi, mineral tarkibiy qismlar chiqarib tashlanadi, bunda preslangan tolalar bir paytning o'zida yumshatiladi, so'ngra paxtani 5-6 soat davomida 4 dan 6 gacha atmosfera ostida ishqorning sust aralashmasida qizdiriladigan bug' qozonlarida qaynatish yo'li bilan kimyoviy moydan tozalanadi. Moydan tozalanganidan keyin suv bilan yaxshilab yuviladi, so'ngrapaxtani doimiy aralashtirib gomander deb nomlangan mashinalarda ohak yoki xlorli natriy bilan oqartiriladi. Bunda paxta tolasi birmuncha qiqiladi. Xlor ohak qoldiqlarni erib ketishi uchun massa oxroq kislotalanadi, shundan so'ng yana yaxshilab yuviladi. Suv qoldig'i sentrifuglarda siqib olinadi. ular massa solingan o'z veritkal o'qi atrofida minutiga 3-4 ming marta aylanadigan turli barabandan iborat qozon ko'rinishda bo'ladi. Massadagi suv markazdan qochish kuchi ta'siri ostida qozon devoriga borib yopishadi, shu yo'l bilan massa quritiladi, shundan so'ng vakum quritgichda batamom quritiladi (namlik 1-2 foizdan kerak).

Shu usulda tozalangan sellulozaga azot va oltingugurt kislotalari aralashmasi bilan ishlov beriladi, bu selluloid tayyorlash jarayonida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan nitrlash ishidir.

Bunda, masalan, quyidagi kimyoviy reaksiya ro'y beradi:





selluloza azot kislotasi nitrotsellyuloza suv.

Azot kislotasi selluloza bilan birikib sellulozaning murakkab azaotkislotali efirini hosil qiladi, u nitrotsellyuloza deb nomlanadi.

Bu holatda oltingugurt kislotasi reaksiya paytida hosil bo'lgan suvni bog'lash uchun kitiladi, ammo shu bilan birga oltingugurtkislotasi boshqa, murakkabroq ta'sir ham o'tkazadi, ammo nitrolash bilan bog'liq asosiy reaksiyaga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega (5-rasm)

## 5-rasm. Nitrolash uchun sentrofuga.

Olingan efir mononitrat deb nomlangan, negaki bir gidroksil selluloza (ON) qoldiq bilan (ONO<sub>2</sub>) aralashgan bo‘ladi. Ammo bunday qoldiqdan bir bir nechta bo‘lgan selluloza efirlari ma’lum. Sellulozaning o‘zida esa eng kamida uchta gidroksil bor deb hisoblash mumkin; shuning uchun nitrolash paytida trinitratlar ham paydo bo‘lishi mumkin.



Ammo aslida sellulozani nitrolashni bu holatda bu holatda o‘tkazishi mumkin emas. Bunday individual efir bo‘lishi uchun diom bir paytning o‘zida turli efirlar hosil bo‘ladi: agar trinitrat olinsa, u bilan birga mono va dinitrat hosil bo‘ladi.

Shuning uchun sellulozaning nitrolash mahsulotlari odatda ularda azot mavjudligining foizi miqdorida xarakterlanadi. Ko‘rinadiki, chuqurroq nitrolashga nitrotsellyulozada ko‘proq azot mavjudligi mos keladi yoki aksincha.

Azot 11,3 dan 12,5 foizgacha mavjud bo‘lgan sellulozani nitrolash mahsuloti texnikada koolksilin deb nomlanadi, agar nitrotsellyulozada azot 12,5 foizdan ko‘p bo‘lsa, u prosilin deb nomlanadi.

Tashqaridan bu selluloza nitratlarni dastlabki sellulozadan farq qilmaydi: ularda sellulozaning tolalituzilishi ham saqlanadi va oq rang deyarli o‘zgarmaydi.

Ammo har ikkala mahsulot o‘z tarkibiga ko‘ra bir-biridan keskin faqr qiladi. Kolloksilin spirt va efir aralashmasida oson erib ketsa (bundan aralashma kollodiy deb nomlanadi), piroksilin bu xususiyatga ega emas. Piroksilin kuchli portlovchi mooda hisoblanadi va tutunsiz porox tayyorlash uchun material sifatida qo‘llanadi.

Selluloid tayyorlash uchun asosan selluloiddan foydalaniladi. Nitrolanganidan keyin kolloksilin yaxshilab yuviladi. Selluloza tolalarni anchayn miqdorda kislota bo‘lishini talab qiladi, shunga qaramay plyonkada kislota bo‘lsa, u tez eskiradi va mexanik xususiyatlarni pasaytirib yuboradi. Shuning uchun birinchi marta yuvilganidan keyin qator joylashgan vannalarda sovuq suv bilan yana bir necha bor yuvish kerak, bunda vannalardagi suv oqimga qarshi yo‘nalgan bo‘lish lozim. So‘ngra sentrifugalarda ham sovuq suv bilan yuviladi. Sovuq suv bilan yuvilgandan keyin ham 0,3 foiz kislota qoladi, tolaning o‘zidan kislota bundan mustasno. Shuning uchun sentrifugalarda yuvishdan keyin kolloksilin suvni tez-tez almashtirib yana yuviladi. Sovuq suvdan keyin sodaning kuchsiz aralashmasida sakkiz marta qaynoq suvda yuviladi. Qaynoq suv bilan so‘nggi ikki marta yuvishda suv toza bo‘lishi kerak.

Yuvilgan kolloksilin so‘ngra mo‘tadillashtiriladi, ya’ni kislotadan batamom tozalanadi. Mo‘tadillashtirish maxsus changlarda aralashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi, ular laverallar deb nomlanadi va kolloksilin ishqorining kuchsiz aralashmasida 10-12 marta qaynoq suvda yuviladi. Ayni paytda kolloksilin

qayshiqoqligini pasaytirish uchun laverga ammiak, piridin, soda singari ba'zi moddalar qo'shilmaydi. So'ngra kolloksilin butunlay oqartiriladi, yana bir marta yuviladi va spirt bilan oqartiriladi va keyin suvsizlanitiriladi, uning ortiqchasi gidravlik kress yoki sentriugalar bilan olib tashlanadi.

Nitrotsellyulozaning oson yonishi va olovlanishi va piroksilining portlash havfi nitratsiyalash jarayonini havfini kuchaytiradi. Shuning uchun nitratsiyalash maxsus jixozlangan portlovchi moddalar zavodlarida barcha havfsizlik choralari ko'rilgach amalga oshiriladi. Kinoplyonka fabrikalarining o'zi kolloksilin tayyorlamaydi, uni tegishli zavodlardan tayyor olishni ma'qul ko'radi.

Kinoplyonka fabrikasida kolloksilin eng avvalo spirt va aralashmasida eritiladi. Ammo kollodiya nomlangan kolloksilin eritmasidan bevosita plastik massa olib bo'lmaydi. Aralashmalar bug'lanishi bilan kollodiydan qo'yilgan plyonka sinadigan, yoriladigan, foto va kinoplyonka tayyorlashga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi. Kolloksilin egiluchan va bukiluvchan bo'lishi uchun aralashmaga playetifikatorlar, ya'ni massaga plastik xususiyat beruvchilar qo'shiladi.

Kamfora nitrotsellyuloza uchun eng yaxshi plastifikatorlar hisoblanadi. 20-25% kamfarali nitrotsellyuloza kopozitsiyasi sellyuloid deb nomlanadi.

Kolloksilinni aralashtirish va unga kamfora qilish alohida-malakserlarda amalga oshiriladi.

Turli moddalar qo'shilganidan keyin sellyuloidning xususiyatlarini yaxshilash, uning egiluvchanligini ta'minlash, elektrlashish qobiliyatini oshirish maqsadida bir xil tarkibdagi tortuvchi massa bosim ostida matoli fil'tr orqali yaxshilab fil'trlanadi va tinishga qo'yiladi, ko'piklar yo'qolgach undan plyonka tayyorlanadigan mashinaga keladi.

Sellyuloidni kinoplyonka tayyorlashga to'plashgacha yaroqliligiga qarmasdan jiddiy kamchilikka ega. Utez olovlanishi, agar plyonka yopiq joyda bo'lsa yonishi va portlashi ham mumkin. Yonayotgan sellyuloidni o'chirish qiyin. Uxavo yo'q joyga ham yonishi mumkin.

Bu xolat kinoplyonka tayyorlashda sellyuloidni almashtirishi mumkin bo'lgan biror boshqa izlashga majbur qildi. O'z vaqtida shu maqsadda hatto metalgcha bo'lgan turli moddalar taklif qilindi; bunda yupqa metall lentalaridagi tasvir yorug' tushganda proyeksiyalanishi kerak edi.

Bunday moddalar ichida eng tarqalgani atsetilsellyuloza bo'ldi.

Atsitsellyulozali yoki boshqacha aytganda atsetat plyonka sellyulozadan ko'ra qiyinroq yonadi va oson o'chadi.

Shu munosabat bilan atsetat plyonkani sellyulozaga nisbatan "yonmas" deb ataldi, ammo nomni faqat shartli tushunish lozim.

O'z kimyoviy tarkibiga ko'ra atsetilsellyuloza sellyulozaning sirka kislotasi efiridan iborat va tozalangan sellyulozani muzli sirka kislotasi bilan sirka angidridiga oltingugurt kislotasi yoki ruhning kichikroq aralashmasi ishlov berish

natijasida olinadi: bu aralashma atsetillangan sellyuloza reaksiyasini kuchaytirib yuboradi. Reaksiya paytida kuchli issiqlik ajraladi va reaksiyaga kirishgan qorishma muz bilan sovutiladi.

Reaksiya natijasida turli nitro efirlar (mono, di-, trinitratlar) aralashmasi hosil bo'ladigan sellyulozani nitratlash reaksiyasidan qarqli sellyulozani atsetilirlash odatda triatsetatga olib keladi.

Ammo bu mahsulot aralashmalarga nisbatan o'z munosabatiga ko'ra noqulay hisoblanadi: u xloroformda aralashmada va anchayn qulay atseton singari aralashmalarda erimaydi. Shuning uchun olingan triatsetatdan diatsetat olish maqsadida deatsetilirlanadi. Bu atsetonda yaxshi eriydi.

Triatsetat hosil qilish reaksiyasi bir necha soat davom etadi va natijada shaffof yelimshaksimon massa olinadi, u ba'zi organik eritmalarda yaxshi eriydi, lekin suvda erimaydi. Uning bu xususiyatidan atsetilsellyulozani sof holda olish imkonini beradi: agar atsetirlash reaksiyasidan keyin paydo bo'lgan massani suvli bakka kiritilsa, bunda atsetilsellyuloza cho'kindi sifatida tubga o'tiradi, u yig'iladi, yuviladi va sentrofugda suvni siqilganidan keyin kolloksilinga o'xshatib vakkumda kiritiladi.

Nitrotsellyulozaga o'xshab atsetilsellyuloza ham sofholdamstahkam plyonkani bera olmaydi va ayniqsa trifenilfosfat ulardan eng ma'qullari hisoblanadi.

Atsetonda atsetillyulozani eritgandan va plastikatorlar qo'shilganidan keyin hosil bo'lgan quyuq suyuqlik bosim ostida filtrlanadi va plyonka tayyorlash uchun sellyulodan xizmat qiladigan mashinaga tushadi.

## **2.2. Yangi uslublarning kashf etilishi.**

Dastlab plyonka tayyorlash uchun 50 metr gacha uzunlikdagi stol hosil qilib gorizontal holatda yonma-yon o'rnatilgan qalin ko'zguli oyna qo'llanadi. Bu stol ustida bo'yamasiga sellyuloid qorishmaga solingan idish harakatlanadi, undagi teshikdan oynaga qorishma oqib chiqadi, idishdan tekis oqib chiqib oyna yuzini yupqa parda bo'lib qoplaydi. Bu usuldan tez orada kechib yuboriladi, negaki, birinchidan sellyuloidda oyna choklari izi qoladi, ikkinchidan esa ist'molchi ancha uzun bo'lgan plyonkani talab qiladi. Shuning uchun "Istmen-Kodak" fabrikasi tez orada barabanlarda (trommellarda) plyonka tayyorlashga o'tdi. (6 rasm)

Baraban kattaligi plyonka tayyorlashni va tashishni qiyinlashtirganligi bu mashinaning kamchiligi hisoblanadi.

Shuning uchun tez orada barabanlar alohida qismlardan yig'ilagan halqali mashinalaraga almashtiriladi (7- rasm). Bu qurilma ham ayrim qismlar orasidagi choklardan iborat jiddiy kamchilikdan iborat bo'ldi, shuning uchun plyonka ishlab chiqarish texnikasi lentali mashina bilan o'z takomiliga erishdi (8-rasm).

Plyonkani sug'orish uchun fabrikalarda ikki tizim filveri qo'llanadi.

Birinchi- quyuvchi filver (9-rasm) ikki qismdan iborat: sug'oruvchi kamera- II va zahira kamera-I. Kamera II old tomonida 0 tegishli bo'ladi, undan kollodiy oqib chiqadi.

Uning kengligi old devorni ko'tarish va tushurish bilan va A vintlar yordamida tartiblanadi. Teshik oldidagi kamera ichida egiluvchan d to'siq bor, u vintlar yordamida ayrim qismlari yoki butun uzunligi bo'ylab bukilishi mumkin. Bu tizim filverdan mashina lentasiga oqib tushayotgan kollodiy qatlami qalinligining aniq tartiblash imkonini beradi. Ikkinchi tur hisoblangan surkovchi filvera (10-rasm) butun uzunligi bo'ylab kollodiy oqib chiqadigan teshikdan iborat.

Sirkovchi filvera quyuvchiga qaraganda ancha sodda vaishonchliroq ishlaydi. Plyonka tayyorlashda spirt va efirdan ibora qimmat erituvchilar ko'p miqdorda sarflanadi, ular mustahkamroq plyonka olish uchun imkon boricha suviz bo'lishi kerak. Negaki plyonka quritilayotganda yopiq kanallardan o'tadi, bu erituvchilarni tutib qolish imkoniyati bor va ulardan yana foydalanish mumkin, ularni havoga chiqarib yuborish ancha zarar keltiradi va yong'in havfini hosil qiladi.

Rekuperatsion uskunalarda deb nomlangan erituvchilar qaytarib olinadi. Erituvchilar bug'idan iborat, ulardan biridagi havo yaxshilab sovutiladi. Bunda erituvchilar bug'i suyuqlikka aylanadi, u keyin spirt va efirni ajratib olish uchun qayta haydaladi.

Boshqa uskunalarda erituvchilar bug'ini yutish uchun krezol singari ularni yutuvchi ayrim moddalardan foydalaniladi.

Krezol ko'mirni quruq haydaganda olinadigan suyuqlikdan iborat bo'ladi. 130darajagacha qizdirilganda krezol erituvchilarni qaytarib beradi va ularni yana yutish uchun qo'llash mumkin bo'ladi.

Shu yo'l bilan tayyorlangan plyonka asosining keniychalik yuzasiga maxsus ishlov beriladi, shunda emulsiya qatlami asosga mustahkam birlashadi. Asos yuzasini bunday tayyorlash ikki usul bilan amalga oshiriladi. Birinchi usulda plyonka yuzasiga o'tuvchi ishqor eritmasi bilan ishlov beriladi, suvda biroz shishadi va emulsiya bilan yaxshiroq yopishadi.

Boshqa usulda sellyuloid va atsetat plyonkaga atseton va spirt aralashmasi sirka kislotasi bilan yelimshak eritmasidan iborat tag qatlam suriladi. Bu holatda plyonka yuzasi ham biroz ko'pchiydi, shu bilan birga yelimshak u bilan yelimshak emulsiyasini yopishuvini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, bu turdagi tagqatlamning ham kamchiligi bor, u ham bo'lsa kislota reaksiyasiga ega bo'lib, emulsiyasiga ta'sir qiladi, uning yorug'likni xis qilishini susaytiradi va tayyor plyonkaning saqlanishi qobiliyatini kamaytiradi.

Tagqatlam bilan qoplangan plyonka quritiladi va so'ngra o'raladi, shundan keyin emulsiya quyishi uchun mashinaga o'tkaziladi .

Plyonkaning bir tomoniga tagqatlam berish bilan birga uning boshqa tomoniga yuza hosil qilishi uchun alohida lok qoplanadi. Agar plyonkani rangli tayyorlash zarur bo'lsa, lok yoki bevosita malakserga tegishli ranglarining spirtli

bo'yoq aralashmalari qo'shiladi. Tagqatlam berilganidan va asos loklangandan keyin plyonkaga emulsiya qo'yish uchun qo'yish sexiga o'tkaziladi.

Plyonkaga emulsiya qo'yish uchun mo'ljallangan mashinalar umumiy kurinishida quyidagilardan iborat bo'ladi. Qaynoq suv bilan isitiladigan tog'orada mavjud bo'lgan emulsiya boshqalar yordamida plyonkaga o'tkaziladi. Plyonkaga emulsiya cho'milayotgan valik va otadigan valik yordamida ikki xil usul bilan beriladi.

Birinchi holatda asos valikni etib emulsiyaga botiradi va shu yo'l bilan ho'llanadi. Bunda odatda avtomat tarzda tartiblab turiladigan emulsiya darajasi doimiy bir xilda bo'lishiga e'tibor berishi zarur

Ikkinchi holatda valik emulsiyaga botiriladi, u aylanayotib emulsiya plyonkaga otadi, shu tarzda egilgan valikda ho'llovchi do'ng hosil bo'ladi.

CHO'milayotgan valik bilan plyonkani sug'orish.

Otayotgan valik bilan plyonkani sug'orish.

Sug'orishning keyingi usuli ma'qul hisoblanadi, negaki birinchi usulda emulsiya ko'pincha asosining tomoniga oqib ketadi.

Asos sug'orayotgan moslamadn o'tib, yuqoriga tik ko'tariladi va diametrli baraban ichida kovakni egadi. Sug'orilgan asos o'tayotgan baraban ichi sovitiladi, shuning uchun plyonka barabandalik paytida soviydi. Barabandan keyin plyonka barabandan keyin sovituvchi plyonkaga berilayotgan emulsiya pozitiv uchun 1 kv.m.ga 150 kub sm negativ plyonka uchun 250 kub.sm. bo'lishi kerak. Cug'orish tezligi odatda minutiga 5-6 m.ni tashkil qiladi.

Sug'orish mashinasida sug'orilgan asos quritish uchun ilgich uskunaga o'tadi. Bu yerda plyonka cheksiz zanjirlar yordamida harakat qilayotgan maxsus moslamaga avtomat ilinadi va 2,5-3 m. uzunlikdagi ko'plab miqdordagi kungura hosil qilib osilib turadi. Cheksiz zanjirlar plyonkani 150 m. uzunlikdagi koridor bo'ylab tashiydi, bu vaqt davomida plyonka butunlay kurishga ulguradi va quritish joyidan chiqqandan keyin o'raladi

Sug'orilgan asosni quritish jarayonida quritish joyining ayrim qismlaridagi harorat darajasi katta ahamiyatga ega bo'lib qoladi, bunda emul'siya qatlami erib ketmasligi, qurigan plyonka esa g'altakka oson o'ralishi uchun namroq bo'lishiga e'tibor beriladi. Quritish joyi qismdan iborat bo'lsa, havo harorati taxminan quyidagicha bo'ladi:

birinchi qismda 18-20 darajali quruq havo beriladi; keyingi qismda ham 30-35 daraja isitilgan quruq havo yuboriladi, nihoyat, oxirgi qismda 20-25 darajali nam havo beriladi.

Sug'orilgan va quritilgan plyonka dumaloq pichoq bilan jixozlangan kesish mashinalari bilan tegishli standart asosida tor tasma shaklida uzunasiga kesib chiqiladi, bunda bir katta endan 32 mm endagi 16-17 tasma hosil



bo'lishi kerak. Yaxshilab nazorat qilinganidan keyin kesilgan plyonka perforatsion mashinaga o'tadi, maxsus qora qog'ozga o'raladi va metall qutichalarga solinadi

### **Nazorat savollari**

1. Ko'rgazma qurollarida foydalanish uslublarini ko'rsating?.
2. Portret tushunchasini izohlang?
3. Qanday portret turlarini bilasiz?
4. Portretlarni suratga olishda tabiiy yorug'likning ahamiyati qanday?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. David Prakerl Basics "Photography\_Composition"2004 yil Korea
2. I.Meliqo'ziyev. "Kinoteleoperatorlik mahorati amaliy badiiy fotosuratga olish jarayoni"- O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014y.
3. I.Meliqo'ziyev. "Fotokompozitsiya (ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi)"- O'quv qo'llanma . Toshkent, 2014 y.

### **3-mavzu: Fotokompozitsiya fanining ilg'or xorijiy tajribalarini tahlil qilib, ilmiy izlanishlar olib borish metodikasi.**

#### **Reja:**

- 3.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali fotokompozitsiya fanini o'qitishni loyihalash.

**Tayanch iboralar:** Fotograf, Obraz, yorug'lik, rakurs, postanovka, tasvir, kompozitsiya, montaj, Fotokamera, uslub.

#### **3.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali fotokompozitsiya fanini o'qitishni loyihalash.**

"Fotokompozitsiya" fanini o'qitish uslubi metodik jihatdan oddiydan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lib, fotografiyaning eng asosiy elementlarini o'rganish va uni badiiy yechim imkoniyatlarini nazariy bilimlaridan amaliyotda qo'llashi ko'zda tutilgan. Har bir bosqichdagi amaliy ishlar avvalgi qilingan va olingan bilimlarga asoslanib rivojlanitirib boriladi.

Barcha nazariy va amaliy ishlarni o'qituvchi boshchiligida olib borilib, talabaga tahlil qilish usullari o'rgatib boriladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim talabalarning fan doirasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirishga, mustaqil ravishda yanadi rivojlantirishga yaqindan yordam beradi, jumladan, san'atga oid ilmiy manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni rivojlantirish, milliy va jaxon kino maktablari va

yoʻnalishlari yutuklarini taxlil qilish, badiiy tafakkur madaniyatini va butungi kunning sanʼat amaliyotini tankidiy yondoshuv orqali oʻzlashtirish malakasini shakllantirish. Faoliyatning bu turi – topshiriklarning kuyidagi roʻyxatini qamrab olishi mumkin: oʻquv dasturiga kiritilmagan ayrim masalalarni nazariy jixatdan mustaqil tadqiq etish, keng kamrovli amaliy materialni mustaqil taxlil etish, tankidiy tahlil, kinoteleoperatorlik sanʼatini tushunish va xokazolar.

Talabalar auditoriya mashgʻulotlarida professor-oʻqituvchilarning maʼruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq oʻrganish maqsadida qoʻshimcha adabiyotlarni oʻqib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu boʻyicha testlar yechadi. Mustaqil taʼlim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qoʻshimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil oʻrganish, kerakli maʼlumotlarni izlash va ularni topish yoʻllarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib maʼlumotlar toʻplash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy toʻgarak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va maʼruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil taʼlimsiz oʻquv faoliyati samarali boʻlishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashgʻulot olib boruvchi oʻqituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni oʻzlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa maʼruza darslarini olib boruvchi oʻqituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil taʼlim talabalarning fan doirasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirishga, mustaqil ravishda yanadi rivojlantirishga yaqindan yordam beradi, jumladan, sanʼatga oid ilmiy manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishni rivojlantirish, milliy va jaxon kino maktablari va yoʻnalishlari yutuklarini taxlil qilish, badiiy tafakkur madaniyatini va butungi kunning sanʼat amaliyotini tankidiy yondoshuv orqali oʻzlashtirish malakasini shakllantirish. Faoliyatning bu turi – topshiriklarning kuyidagi roʻyxatini qamrab olishi mumkin: oʻquv dasturiga kiritilmagan ayrim masalalarni nazariy jixatdan mustaqil tadqiq etish, keng kamrovli amaliy materialni mustaqil taxlil etish, tankidiy tahlil, kinoteleoperatorlik sanʼatini tushunish va xokazolar.

Talabalar auditoriya mashgʻulotlarida professor-oʻqituvchilarning maʼruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq oʻrganish maqsadida qoʻshimcha adabiyotlarni oʻqib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu boʻyicha testlar yechadi. Mustaqil taʼlim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qoʻshimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil oʻrganish, kerakli maʼlumotlarni izlash va ularni topish yoʻllarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib maʼlumotlar toʻplash va

ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma‘ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta‘limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma‘ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Kadr kompozitsiyasi nima?
2. Tasvirda kompozitsion qonun qanday shakllanadi?
3. Kompozitsiyaning asosiy qonunlarini sansb o‘ting.
4. G‘oyaviy kompozitsion bezak nima?
5. G‘oya nima?

### **Foydananilgan adabiyotlar**

1.Ismailov A.I. “Kinoteleoperatorskoye masterstvo” -Darslik. Toshkent, 2004-y.

2.Blain Brown. “Cinematography. Theory and practice imagemaking for cinematographers and directors” -TR850.B7598. Darslik. 2012-USA.

3.David Praker “BASICS Photography COMPOSITION” Copyright © AVA Publishing SA 2006-USA.

4.Ismailov A.I. “Jivopis so svetom v tvorchestve Vittorio Storraro”-O‘quv qo‘llanma. Toshkent,2005-y.

5.I.Meliqo‘ziyev. Kinoteleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya: shakllanish va taraqqiyot jarayonlari) Darslik. Toshkent, 2017-y.

#### **4-mavzu: Uzoq tarixga ega o‘zbek rassomlari ishlari, kompozitsiya yaratishdagi metodlari tajribalaridan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish.**

##### **Reja:**

4.1. Kompozitsiya nima va Kompozitsionlik belgilari nimada? U qanday retseptlardan tashqariekanini o‘rganish.

**Tayanch iboralar:** Fotograf, Obraz, yorug‘lik, rakurs, postanovka, tasvir, kompozitsiya, montaj, Fotokamera, uslub.

Kompozitsiya bu nima? Kompozitsionlik belgilari nimada? U qanday retseptlardan tashqari? Kompozitsiya – turli vaqtli sintezi bo‘lsa, «lahza»ni tasvirlash vazifasi – kompozitsiyaga qarshi. Biroq bu alohida yaxlit obraz qurishning juda qiyin vazifasi. Har qanday lahza vaqt borishida bog‘lamdir. Kompozitsiya asosi – tasvirlashning faqat tekislik omillari bo‘lsa, kompozitsiyani chuqur fazoviy bo‘ysundirilishi noto‘g‘ri. Xo‘sh, unda tekislikda notekis figuralar va ucho‘lchamli dunèni tasvirlash masalasi nimada? Kompozitsiya turli ko‘rish pozitsiyalari sintezining ifodasi bo‘lsa, impressionistik peyzaj havasqor sodda «nusxasi» kabi kompozitsiyaga qarshi. Lekin impressionistlarga oddiy nusxa ko‘chirish vazifasi tegishli deb aytib bo‘ladimi? Impressionistik peyzaj boshqalarga nisbatan ko‘proq darajada ifodalanishdir. Kompozitsiyaning muhim belgilari. Kompozitsiyaning asosiy belgisi yaxlitlikdan boshlash tabiiy. Bu belgi menga ma’lum ta’riflarda ochiq èki yashirin mavjud. A. A. Favorskiyning turli fazoviy va turli vaqtiy yaxlitlikning ko‘rinuvchi shakli haqidagi B.A. Uspenskiy va L.F. Jeginning ko‘rish pozitsiyalari sintezi, K.F. Yuanning – yaxlit konstruksiya, yagona tuzilish haqidagi gaplarini eslaymiz. Endi gumanitar fanlar, shu jumladan san’atshunoslikka ham sintez, konstruksiya, tuzilish so‘zlari mustahkam kirib olgan. San’at to‘g‘risida gap ketganda ular «butun», «yaxlitlik» so‘zlari kabi kompozitsiya to‘g‘risida gapirganda paydo bo‘luvchi oddiy so‘zlar bo‘lib qolgan. Bu yerda chegaralash lozim. Tuzilish, konstruksiya, kompozitsiya – yaqin tushunchalar. Turli hodisa va fanlarga tegishli diffuzli ma’nolar oilasini ifodalovchi so‘zlar. Bir fanlarda bu so‘zlar qat’iy atamalashtirilgan. Unda ular tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, «tuzilish» (molekulalar) kimèda atama va uning ma’nosi haqida bahs paydo bo‘lmaydi. Tilshunoslikda «tuzilish» so‘zini atama qilishga harakat qiladilar. Biroq uning ma’nosi hali diffuzli bo‘lib qoladi. San’at nazariyasida bu so‘zning ma’nosi yana ham kamroq tushunarli. «Tuzilish» so‘zi bilan bu yerda yechish kerak bo‘lgan turli tushunchalar tugunini anglatadi. «Tuzilish» umumiy tushunchasi hali mavjud emas. San’atning alohida turiga nisbatan u juda ham abstrakt bo‘lmasmikan? Turmush buyumlari va texnikasi sohasida odatiy bo‘lgan ma’nosi jihatidan ancha aniqroq «konstruksiya» so‘zi san’at sohasida, hatto amaliy san’at sohasida ham, «tuzilish», «kompozitsiya» so‘zlari bilan almashib ancha noaniq so‘z bo‘lib qoladi. Hatto me’morchilikda «konstruksiya» so‘zi ikki ma’noli. U èki statika qonunlari va material xususiyatlari

